

NODAVLAT TA'LIM TASHKIOTLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ZARURIYATI VA TARTIB-QOIDALARI

Xudayberdiyeva Dilafroz Abidovna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Eshmurzayeva Kamola Ilhom qizi,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,

“Boshlang'ich ta'lism” yo'naliishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada nodavlat ta'lism tashkilotlari faoliyatini tashkil etish zaruriyati va tartib-qoidalari haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: nodavlat ta'lism tashkilotlari, hisobraqam, ustav, nodavlat notijorat tashkilotlari, normativ-huquqiy hujjatlar, jismoniy va yuridik shaxslar...

Nodavlat umumta'lism tashkiloti ta'lism berish tashkilotlarining muqobil shakli hisoblanuvchi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilgan tijorat yoki notijorat tashkilot bo'lib, o'zining alohida mulkiga, banklarda hisobraqamlarga, o'z nomi yozilgan dumaloq muhrga, shtamplarga va o'z ramziga ega bo'ladi¹.

Nodavlat notijorat umumta'lism tashkiloti belgilangan maqsadlariga mos ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Nodavlat umumta'lism tashkiloti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, o'z ustaviga amal qiladi².

¹ 2-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

² 3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.





Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

Nodavlat umumta'lim tashkiloti belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan vaqtdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.


Nodavlat umumta'lim tashkilotining nodavlat umumta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o'rnlarda Davlat inspeksiyasi deb ataladi) tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi. Nodavlat umumta'lim tashkiloti ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa ta'lim muassasalari va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Nodavlat umumta'lim tashkilotining maqsadi ta'lim oluvchilarga umumiyl o'rtalimning yuqori sifatini ta'minlaydigan qulay shart-sharoitlar yaratish, an'anaviy ta'lim xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta'lim olishning muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ilg'or xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda o'qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish asosida umumiyl o'rtalim sohasidagi samaradorlik va natijadorlikni oshirishdan iborat.

Nodavlat umumta'lim tashkilotida ta'lim jarayoni yuqori turuvchi organ tomonidan tasdiqlanadigan o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalarining xohish-istiklarini inobatga olgan holda, nodavlat umumta'lim tashkiloti pedagogik kengashining qaroriga asosan qo'shimcha o'quv rejalarini va o'quv dasturlaridan foydalaniishi mumkin.

Nodavlat umumta'lim tashkilotida o'quv yili va ta'tillarning davomiyligi, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlari muddatlari, ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish shakllari hamda ta'lim oluvchilarning bilimini baholash davlat umumta'lim muassasalari uchun belgilangan tartib va muddatlarga mos holda amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi:



Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda bayram (ishlanmaydigan) kuni deb belgilangan kunlarda dars mashg‘ulotlari o‘tkazilmaydi³.

Nodavlat umumta’lim tashkilotida ta’lim jarayoni ta’lim oluvchilar bilan guruh bo‘yicha va yakka tartibda mashg‘ulotlar olib borish orqali tashkil etiladi. Jismoniy va yuridik shaxslar nodavlat umumta’lim tashkilotining muassislar bo‘lishi mumkin. Nodavlat umumta’lim tashkilotiga muassis (muassislar) tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor bevosita rahbarlik qiladi. Nodavlat umumta’lim tashkiloti direktori muassasaning tashkiliy-huquqiy, o‘quv-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy va moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining tashkil etilishi uchun bevosita mas’ul hisoblanadi. Nodavlat umumta’lim tashkiloti direktori lavozimiga qo‘yiladigan malaka talablari muassis tomonidan belgilanadi. Nodavlat umumta’lim tashkiloti faoliyati bilan bog‘liq eng muhim masalalarni muhokama

³ 14-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

qilish, muammolarni bartaraf etish va istiqboldagi rejalarini shakllantirish maqsadida tashkilotda pedagogik kengash tashkil qilinadi. Pedagogik kengash tarkibiga nodavlat umumta'lim tashkilotining direktori va pedagog xodimlari kiritiladi.

Nodavlat umumta'lim tashkilotining ta'lim, metodik va innovatsion faoliyatini ta'minlash yuzasidan metodik xizmatni amalga oshirish, pedagog xodimlarning malakasini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy mahoratini oshirish hamda metodik ishlarga tez moslashuvchanligini ta'minlash maqsadida metodik kengash tashkil qilinadi. Nodavlat umumta'lim tashkiloti faoliyati muassis (muassislar) tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq moliyalashtiriladi. Nodavlat umumta'lim tashkiloti o'ziga biriktirilgan mol-mulkni va xarajatlar smetasi bo'yicha ajratilgan mablag'larni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etadi.

Nodavlat umumta'lim tashkiloti faoliyati quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi⁴:

- muassis (muassislar) tomonidan ajratilgan mablag'lar;
- shartnoma asosida ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari tomonidan to'langan mablag'lar;
- dars mashg'ulotlaridan tashqari paytda bo'sh binolar, inshootlar, asbob-uskunalarini ijaraga berishdan tushgan mablag'lar;
- xo'jalik faoliyatidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, mahalliy va xalqaro tashkilotlarning grantlari;
- qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

⁴ 58-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-soni qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son

Nodavlat umumta'lim tashkilotini qayta tashkil etish yoki tugatish o'quv yili yakunida muassis (muassislar) tomonidan amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Махаммадиев А. Т., Анварова М. Д. Творческий подход дошкольного преподавателя к образованию //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 25-28.
2. Махаммадиев А. Т., Каххарова С. М. Мысление, сознание и грамотность современные философские вопросы речевого образования //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 168-171.
3. Махаммадиев А. Т. Образование-источник новых идей, творческого мышления и нововведений //Профессиональное самоопределение молодежи инновационного региона: проблемы и перспективы. – 2018. – С. 156-157.
4. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lism xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi // "Russian" Инновационные подходы в современной науке. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
5. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lism turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari // "Germany" Modern scientific research: achievements, innovations and development prospects. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
6. Asatillaevich A. B. The main tasks of teaching a student to youth lesson in relation to specialists //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 8. – С. 123-126.
7. Arziqulova S. Talim-tarbiyada MTM bilan ota-onha hamkorligi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 140-143.
8. Xudoyberdiyeva D. A. Management Of Service Rendering Organizations And Its Own Characteristics //ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2019. – С. 24-25.
9. Zakirova M. J., Abidovna X. D. Effective organization and management of preschool institution activities //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 184-191.



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th April, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

10. Abidovna X. D. THE IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2022. – T. 4. – C. 57-60.
11. Abidovna X. D. Features of the formation of services industry management //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 7. – C. 142-148.
12. Аббосов Б. А., Худайбердиева Д. А. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЙ "УПРАВЛЕНИЕ" И "МЕНЕДЖМЕНТ" //Проблемы и достижения современной науки. – 2019. – №. 1. – С. 74-75.